(4). Abdullayeva D.A. Ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuv asoslari. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2019, 79–81-betlar.
(5). Karimova G.M. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar. "Pedagogik tadqiqotlar", 2023, 2-son, 41–43-betlar.
(6). Rakhimova D.A. O'smir yoshdagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish: nazariy va amaliy jihatlar. "Pedagogika va psixologiya" jurnali, 2022, 4-son, 107–109-betlar.
(7). OECD. Education and Gender Equality. Paris, OECD Publishing, 2021.

Allaberganova Marifat Kuranbayevna (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti; marifatallaberganova196@gmail.com; https://orcid.org/0009-0003-8713-9856)

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA IMLO QOIDALARINI O'RGATISHDA TA'LIM MODELLARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy savodxonligini oshirishda ta'lim modellaridan maqsadli foydalanish, imloni o'rgatishda zamonaviy ta'lim modellarining o'rni, uning mazmuni, mohiyati, afzalliklari haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, imloviy savodxonlik, ta'lim modellari, ekstrafaol, faol, introfaol, interfaol ta'lim modellari.*

Аллаберганова Марифат Куранбаевна (Базовый докторант Ургенчского государственного педагогического института; marifatallaberganova196@gmail.com; https://orcid.org/0009-0003-8713-9856)

СОДЕРЖАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ В ОБУЧЕНИИ ПРАВИЛАМ ОРФОГРАФИИ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье представлены научно-теоретические сведения о целенаправленном использовании образовательных моделей в повышении орфографической грамотности учащихся начальной школы, роли современных образовательных моделей в обучении орфографии, их содержании, сущности и преимуществах.*

Ключевые слова: *начальная школа, орфографическая грамотность, образовательные модели, экстраактивные, активные, интро-активные, интерактивные образовательные модели.*

Allaberganova Marifat Kuranbayevna (Doctoral Student at Urgench State Pedagogical Institute; marifatallaberganova196@gmail.com; https://orcid.org/0009-0003-8713-9856)

THE CONTENT OF USING EDUCATIONAL MODELS IN TEACHING SPELLING RULES TO ELEMENTARY STUDENTS

Annotation. *This article provides scientific theoretical information on the purposeful use of educational models in improving the spelling literacy of primary school students, the role of modern educational models in teaching spelling, its content, essence, and advantages.*

Keywords: *primary school, spelling literacy, educational models, extra-active, active, introactive, interactive educational models.*


Kirish (Introduction). Bugungi Yangi O'zbekiston hayotining deyarli barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida faxr bilan gapirmaslikning iloji yo'q. Islohotlarning deyarli ko'pchiligi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'z nutqlarida: "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan edilar [1].

Kunimiz shiddat bilan rivojlanayotgan, imkoniyatlari keng, har jabhada ilg'or texnologiyalardan va milliyligimizga tayangan holda, chet el tajribalaridan foydalanilayotgan zamonda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olishiga qaratilgan e'tibor va innovatsiyalar o'qituvchilarimizni ham izlanishdan to'xtatmaydi. Dars davomida o'quvchilarning samarali o'zlashtirishlari uchun turli xil metodlardan, pedagogik texnologiyalardan uzluksiz foydalanib kelinmoqda. Ta'limning maqsadi ham, aslida, o'quvchilarimizning bilim darajasi faqatgina nazariyaga bog'lanib qolmasdan, uni amaliyotda, hayot yo'llarida foydalanishlariga qaratilgan.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili (Research Methodology). Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim mavzulardan biri bo'lgan "Imloviy savodxonlik" nafaqat shu kungi darsni o'zlashtirishlari uchun, balki butun umrga saboq bo'lib qolishini ta'minlashi kerak. Imlo savodxonligi bugungi kunning ajralmas dolzarb muammolaridan biri desak, adashmaymiz. Zero, professor J.D.Eltazarov aytganlaridek: "Yozuv va imlo xuddi til, din va madaniyat singari insoniyatning eng avaylab-asrashi lozim bo'lgan qadriyatlaridan biridir" [3;5-b.].


Til va madaniyat, imlo haqida ko‘plab professor, olimlarimiz tadqiqot ishlari va asarlar yozishgan. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyevlarning “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (1995), N.Mahmudovning “Til” (1998), “Til tilsimi tadqiqi” (2017), S.Rizayevning “Imlo – savodxonlik asosi” (2004) kitoblarida alifbo, imlo masalalariga bag‘ishlangan fikrlar izlanishlar, atroflicha yoritilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta’lim jarayoni shunday holatki, bunda faqat o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilar ham tengma-teng faol bo‘lishi talab etiladi. O‘quvchilarni darsga faollashtirish esa o‘qituvchining mahoratiga to‘la-to‘kis bog‘liq. Bunda bizga ilg‘or va zamonaviy ta’lim modellari yordamga keladi. Bir qarashda, darsga mos metodlar, usullar topish osondek tuyuladi, ammo izlangan metodlar darsning samarali o‘tishiga, o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini, mehrini oshishiga qanchalik yaqin ekanligini aniqlashimiz lozim. “Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda materiallarni o‘zlashtirish va ularning imkoniyatlari darajasini o‘rganish natijasida maqsadli ta’lim modellaridan foydalanish lozim” [4;78-b.].



1-rasm. Ta’lim modellari.

Ekstrafaol *(tashqaridan faol)* ta’lim – bunda, asosan, dars jarayonida o‘qituvchi bosh rolda bo‘ladi ya’ni yetakchilik qiladi. O‘quvchilar o‘rganishi kerak bo‘lgan nazariy bilimlarni, o‘qituvchi tomonidan berilayotgan ma’lumoti orqali o‘zlashtiradilar. Dars davomida darslikdan foydalaniladi. O‘quvchi faol bo‘lmaydi.




2-rasm. Ekstrafaol ta’lim.

Bu usuldagi ta’lim turida o‘zaro hamkorlik kuzatilmaydi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning dars mashg‘ulotiga nisbatan qiziqishlari kamayadi. Ekstrafaol ta’lim uzoq yillardan buyon qo‘llanilib keladi va hozirda an’anaviy dars turiga kirgan.


Faol (ichki) ta’lim, bunda o‘quvchi berilgan topshiriqni, vazifani mustaqil bajaradi, kreativ izlanadi. Jarayonda o‘qituvchi bilan ishlasalarda, ko‘p vazifani mustaqil bajarganligi bois o‘zaro hamkorlik ko‘zga tashlanmaydi. Dars davomida o‘quvchilar bir-birlari bilan o‘zaro fikr almashishlari ham mumkin. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini qay darajada to‘g‘ri bajarayotganliklari muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi ularni nazorat qilib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, o‘rni kelganda ularga yordam berishi ham kerak.

Bu usulda, masalan, ertangi o‘tiladigan mavzuni oldindan aytiladi. Imlo savodxonligi mavzularidan kelib chiqib vazifa berishimiz mumkin: “Bosh harflar imlosi” mavzusiga tayyorlanib keling, deyiladi. O‘quvchi mustaqil o‘zi mavzu haqida ma’lumotlar izlaydi.



3-rasm. Faol ta’lim turi.

Introfaol (tashqariga faol) ta’limda esa o‘quvchilarning fikrlari, ma’lumotlariga asoslanib dars tashkil qilinadi. Ular, hatto dars ham o‘tishlari mumkin bo‘ladi. O‘quvchilar o‘rganilgan axborotlarni, fikrlarni bir-biriga yetkazishlari, o‘rgatishlari kerak. O‘qituvchi esa kuzatuvchi, ekspert, tashkilotchi qanday ma’noda? o‘quvchilarga mavzu manbasini, qaysi adabiyotlardan foydalanib o‘rganishlarini aytishi kerak bo‘ladi. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda turli xil foydali va keraksiz bo‘lgan axborotlar oqimi kuchli. Shuning uchun ham ma’lumotlarni ishonchli manbalardan olishlarini o‘qituvchi tavsiya qilgani yaxshi. Ayrim hollarda dars mobaynida “o‘quvchiga” aylanib, ustoz o‘rnidagi o‘quvchilarga savollar berib turishi ham mumkin.




4-rasm. Introfaol ta’lim turi.

Interfaol (o‘zaro faol) ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilar, bilimlarini, to‘plagan ma’lumotlarini o‘zaro kollaboratsiya qiladilar. Bir-birlarini tinglaydilar, hamfikr bo‘ladilar, bahs-munozara olib boradilar. Bunday ta’limda o‘quvchilarning kommunikativligi, kreativligi takomillashib boradi. O‘rganilgan nazariy hamda amaliy bilimlar boyitilib, psixologik jihatdan ham yaqin munosabatda bo‘ladilar. Muammolarga yechim topishni, kritik fikrlashni o‘rganadilar.


“Interfaol” so‘zi (ruscha “interaktiv”) ingliz tilidan olingan bo‘lib, (“inter” – o‘zaro, “akt” faol harakat, faollik, ta’sirchanlik) o‘zaro harakat, ikki tomonning birgalikdagi faoliyati ma’nolarini anglatadi. O‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi va uzatilayotgan bilimni, axborotni, tayyor holda emas, izlanish, muhokama, amaliy faoliyat orqali o‘rganishga yordam beradi. Eng asosiy unsurlaridan biri, darsning kreativ va esda qolishini ta’minlaydi. Jahon tajribasida ham o‘yinli ta’lim keng qo‘lla-

niladi. Masalan, “rol o‘ynash (role-play)”, “hikoya qilish (story telling)” kabi interaktiv metodlardan keng qo‘llaniladi.



5-rasm. Interfaol ta’lim turi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yuqoridagi ta’lim modellarining barchasi muhim. O‘rni kelganda eshitishlari, o‘rni kelganda mustaqil o‘rganishlari, birgalikda hamfikr bo‘lishlari, dars davomida faol bo‘lib, uzatilayotgan axborotni o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi. Quyida 4-sinf ona tili darsligidagi “Tutuq belgili so‘zlar talaffuzi va imlosi” [5;31-b.] mavzusiga oid bitta mashqni interfaol metod qo‘llagan holda ishlaymiz.



6-rasm. Tutuq belgili so‘zlar talaffuzi va imlosi.

Bunda, avval, qoida o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Unli harflar va undosh harflardan keyin tutuq belgisi yozilganda nimani anglatilishi tushuntiriladi. “Qatorlarni davom ettiring” topshirig‘i uchun *“Maktub”* nomli interfaol metoddan foydalanamiz. Bunda bizga oldindan konvert ichiga rangli qog‘ozlarga yozilgan, unli va undosh harflardan keyin kelgan tutuq belgili so‘zlar kerak bo‘ladi. Masalan, san’at, tal’at, ma’no, shu’la, a’lo, in’om, mas’ul, qat’iy, Ra’no, Ma’rifat, ta’zim va boshqalar.

Qo‘llanilishi. Sinf ichida kichik guruhlarga ajratilib, darsning asosiy qismida maktub tarqatiladi va metodning sharti tushuntiriladi. Bunda o‘quvchilar unli harf va undosh harfdan keyin kelgan tutuq belgisini ikki ustunga ajratishlari kerak bo‘ladi. Reglament qo‘yib, faol guruhlar rag‘batlantiriladi. Ular topshiriqni bajarish mobaynida o‘zlari bilmagan holda jamoada ishlash qobiliyatlarini, bir-biriga hurmat, bilim olish va bilim uzatish holatini boshdan o‘tkazadilar. Dars davomida “sh harfi ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga (‘) tutuq belgisi qo‘yiladi: Is’hoq, as’hob kabi” deb ma’lumot o‘rnida keltirishimiz mumkin [2].

Keling, yana maktab darsligidan imloga doir bo‘lgan mavzudagi mashqni ekstrafaol ta’lim turidan foydalangan holda ko‘rib chiqamiz. 2-sinf ona tili darsligining 2-qismida “So‘z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar talaffuzi va imlosi” mavzusi berilgan [6;46-b.].



7-rasm. So‘z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar talaffuzi va imlosi.

Rasmda ko‘rsatilgan 2-mashqning shartida so‘zlarni yozib, yonma-yon kelgan undoshlar tagiga chizish aytilgan. Agar ekstrafaol (an’anaviy) ta’lim turidan foydalanadigan bo‘lsak, o‘quvchilarga oddiygina qilib so‘zlarni ko‘chiring va yonma-yon kelgan bir xil undoshlarni topib tagiga chizing deb aytamiz. Ammo darsni yanada qiziqarli va esda qolarli bo‘lishi uchun o‘qituvchining kreativligi kerak bo‘ladi. Bu mashqni yana ikkita usul orqali bajartirishimiz mumkin.

1-usul: bir xil rangdagi so‘zlarni bir qatorga yozing. Bunda o‘quvchilar hayolda, avval, qanday ranglar borligini ajratishadi, so‘ngra shu rangdagi so‘zlarni yozishlari kerak bo‘ladi.

Masalan, havo rangdagi so‘zlar: arra, chinni, sayyora.

Pushti rangdagi so‘zlar: katta, kakku.

Yashil rangdagi so‘zlar: pashsha, achchiq, nonvoy.

Sariq rangdagi so‘zlar: tanaffus, metall. Shu tariqa davom qiladi.

2-usul: so‘z o‘rtasida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarni alohida, so‘z oxirida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarni alohida qilib yozing.

Misol tariqasida “metall” va “ball” so‘zlari so‘z oxirida yonma-yon kelgan bir xil undoshlarga kiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ayniqsa, o‘yin yoshidagi bolalar bo‘lganliklari uchun ham ko‘proq harakatga undaydigan interfaol metodlar, enerjayzerlar orqali darslarni tashkil qilsak, ayni muddao. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga imloviy savodxonlik mavzularini o‘rgatganda faqatgina eski qolipdagi yodlatish usulidan foydalanmasdan, yangi interaktiv metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday metodlar o‘quvchilarni nofaol tinglovchidan faol ishtirokchiga sezilarli darajada aylantira oladi. Imlo qoidalarini nafaqat yodlaydilar, balki amaliyotda, ya’ni, yozuvda, og‘zaki nutqda bemalol qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qiladilar. Natijada o‘quvchilar savodli yozishni o‘rganib, o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. “Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi”. 28.08.2023. https://president.uz/oz/lists/view/6622

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. 24. 08.1995, 339-son.

(3). J.D.Eltazarov. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). Samarqand, 2017, 119-bet.

(4). D.A.Xidoyatova. O‘zbek tilini o‘qitishda samarali ta’lim jarayonini tashkil etishdagi muhim aspektlar. O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari 1(5). Toshkent, 2023, 75–83-betlar.

(5). M.E.Toirova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. Ona tili. 4-sinf, 1-qism, Toshkent, 2023, 87-bet.

(6). S.Kuranov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. Ona tili. 2-sinf, 2-qism, Toshkent, 2023. 86-bet.

Yusupov Navro‘zbek Maxsudbek o‘g‘li (UrDPI Aniq va amaliy fanlar fakulteti jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 241-guruh magistranti),
Ibragimov Qosimbek Isroil o‘g‘li (UrDPI Aniq va amaliy fanlar fakulteti Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 241-guruh magistranti)

FUTBOLDA 11–12 YOSHDAGI DARVOZABONLARNI TAKTIK-TEXNIK JIHATDAN TAYYORLASHDA MAXSUS MASHQLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqola 11–12 yoshdagi futbol darvozabonlarni taktik-texnik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning rolini o‘rganadi. Adabiyotlar tahlili asosida yosh darvozabonlarning psixomotor rivojlanish xususiyatlari, maxsus mashqlar tizimi va ularning samaradorligini baholash mezonlari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, koordinatsiya, reaksiya tezligi va pozitsion o‘yinni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar ushbu yosh guruhida eng yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqot yosh darvozabonlarni tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *yosh darvozabonlar, taktik-texnik tayyorgarlik, maxsus mashqlar, futbol, 11–12 yosh.*

Юсупов Наврузбек (Факультет точных и прикладных наук УрДПИ, кафедра теории и методики физического воспитания и спортивной тренировки, магистрант 241 группы),
Ибрагимов Косимбек (Факультет точных и прикладных наук УрДПИ, кафедра теории и методики физического воспитания и спортивной тренировки, магистрант 241 группы)

ЗНАЧЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ТАКТИКО-ТЕХНИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ВРАТАРЕЙ 11–12 ЛЕТ В ФУТБОЛЕ

Аннотация. *Данная статья исследует роль специальных упражнений в тактико-техническом развитии футбольных вратарей 11–12 лет. На основе анализа литературы проанализированы особенности психомоторного развития юных вратарей, система специальных упражнений и критерии оценки их эффективности. Результаты показали, что специальные упражнения, развивающие координацию, скорость реакции и позиционную игру, обладают наивысшей эффективностью в данной возрастной группе. Исследование подтверждает необходимость комплексного подхода в подготовке юных вратарей.*

Ключевые слова: *юные вратари, тактико-техническая подготовка, специальные упражнения, футбол, 11–12 лет*

Yusupov Navruzbek (Faculty of Exact and Applied Sciences of UrDPI, Department of Theory and Methodology of Physical Education and Sports Training, Group 241 Master’s Student),
Ibragimov Qosimbek (Faculty of Exact and Applied Sciences of UrDPI, Department of Theory and Methodology of Physical Education and Sports Training, Group 241 Master’s Student)

THE IMPORTANCE OF SPECIAL EXERCISES IN TACTICAL-TECHNICAL TRAINING OF 11–12 YEAR OLD GOALKEEPERS IN FOOTBALL

Annotation. *This article examines the role of special exercises in the tactical-technical training of 11–12 year old football goalkeepers. Based on literature analysis, the characteristics of psychomotor development of young goalkeepers, the system of special exercises, and criteria for evaluating their effectiveness are analyzed. The results showed that special exercises developing coordination, reaction speed, and positional play have the highest effectiveness in this age group. The research confirms the necessity of a comprehensive approach in training young goalkeepers.*

Keywords: *young goalkeepers, tactical-technical training, special exercises, football, 11–12 years old*

Kirish. Zamonaviy futbolda darvozabon o‘yinining murakkabligi ortib bormoqda va bu pozitsiyaga maxsus yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, yosh darvozabonlarni tayyorlash jarayonida taktik-texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. 11–12 yosh davri bolalarning psixomotor rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi va bu davrda to‘g‘ri tashkil etilgan mashqlar kelajakda yuqori malakali darvozabon shakllanishiga asos yaratadi [2].

Futbol darvozabonining faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u boshqa o‘yinchilardan farqli ravishda qo‘l bilan to‘pni tutish huquqiga ega va darvoza hududida alohida vazifalarni bajaradi. Shu sababli